

## **BOSHLANG'ICH SINF AQLI ZAIF O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO BOG'LIQLIKNI AHAMIYATI**

Raxmatova Gulnoraxon Po'latxonovna

Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 79-sonli imkoniyati cheklangan  
bolalar ushun ixtisoslashtirilgan maktab-internat logopedi.

### **Annotation**

Ushbu maqolada aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatda ta'lif-tarbiya jarayonida fanlararo bog'liqlikni ahamiyati yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье освещается важность междисциплинарности в образовательном процессе в специализированной школе-интернате для детей с ограниченными интеллектуальными возможностями.

**Abstract:** This article highlights the importance of interdisciplinarity in the educational process in a specialized boarding school for children with intellectual disabilities.

**Tayanch so'zlar:** ta'lif-tarbiya, o'quv jarayoni, nutqiy muloqot, dastur, fanlararo bog'liqlik.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning jamiyatning eng muhim ishi ekanligi ta'kidlangan. Shunday ekan jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalarga beriladigan e'tibor ham katta ahamiyatga ega. Maxsus muassasalarning asosiy vazifasi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ijtimoiy moslashuvi-adaptasiyasini amalga oshirish, ya'ni ularni mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyatda o'z o'rnnini topib, hamma qatori mehnat qilib, yashab ketishiga, ijtimoiy himoyalanishiga yordam berishdir.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar jamiyatning teng huquqli a'zolari sifatida o'z o'rni va mavqeiga ega, shu sababli ular ijtimoiy hayotda sog'lom kishilar orasida uyg'un holda yashashi, mehnat qilishi, davlat qonunlarida belgilangan huquqlaridan foydalana bilishi, tom ma'noda barkamol shaxs, komil inson bo'lib

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

**Date:** 1<sup>st</sup> April, 2023

**ISSN:** 2835-3196

**Website:** econferenceseries.com

yetishishi uchun o‘z ona tilida muloqot qilishni bilishi lozim.Zero, millat tajribasi va umuman fan yutuqlari, urf-odat va an'analar til vositasida o‘rganiladi, asraladi, avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi. Tafakkurning ijtimoiy hodisa sifatida kishilar hayotida, xususan,dunyoni idrok etish va bilishda muhim roli borligi, til bilan chambarchas bog’liqligi isbot talab qilmas haqiqatdir.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatida ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish omillaridan biri fanlararo aloqalarni to‘g’ri tashkil etishdan iboratdir.Boshlang’ich sinf o‘qituvchisi o‘qish va yozuv darslarida turli bo‘limlar va mavzularning o‘zaro bog’lanishi hamda aloqasini aniq belgilashi va o‘qitish jarayonida unga amal qilishi lozim.Dastur talabiga ko‘ra har bir yangi bo‘limni bundan avval o‘tilgan material bilan bog’lash talab etiladi. Fan ichidagi bo‘limlar orasidagi o‘zaro bog’lanishni aniq bilish va hisobga olish o‘qituvchiga o‘tilganlarni samarali va izchil takrorlash va mustahkamlashga imkon beradi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘quv fanlarini ma’lum tizimda o‘qitishning psixologik asoslari yuzasidan shu soha olimlari L.S.Vigotskiy, V.A.,Lubovskiy, M.S.,Pevzner ,T.A.Vlasova , V.G. Petrova, S.Ya.Rubinshteyn va boshqalar turli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan .

M.F.Gnezdilov,V.G.Petrova,S.Sh.Aytmetovalarning asarlarida aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatida fanlararo aloqalar korreksion ishlarni amalga oshirishda juda muhim ahamiyatga ega ekanligi keng yoritilgan. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchining bilish faoliyatidagi kamchiliklari asosan nutq o‘stirish ishlari asosida korreksiyanadidi.Aqli zaif bolada nutqning shakllanish mexanizmini aniqlash uchun ichki nutq mohiyatini anglash muhimdir. Ularning so‘zlashuv nutqini shakllantirish tilni muloqot vositasi darajasida egallash jarayonining asosini tashkil qiladi. Sog’lom bolalar tilning asosiy qonuniyatlarini,eng zarur birliklari (tovush,so‘z,qo‘sishimcha) va ularning birikish qonun-qoidalarini jamiyatdan tayyor holda qabul qiladi.Aqli zaif bolalarda esa bu jarayon murakkab va o‘ziga xos kechadi.Ular o‘qishga o‘rganishda quyidagi bosqichlardan o‘tishadi:harflarni tanish va harflab o‘qish ,bo‘g’inlarni tanish va bo‘g’inlab o‘qish,to‘liq so‘zlarni o‘qish va sidirg’asiga o‘qish.Aqli zaif o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish analitik-sintetik metod orqali amalga oshiriladi.O‘quv fanlar o‘rtasidagi aloqani ta’minlash -o‘qituvchi faoliyatida muhim ahamiyatga ega.Maktab beradigan bilim,malaka,ko‘nikmalardan

har bir o‘quvchi baxramand bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarning hamma fanlar yuzasidan oladigan bilimlari bola shaxsini to‘la tarkib topishi uchun umumiyligini qiyomatga ega bo‘lishini ta‘minlashi lozim .Imkoniyati cheklangan aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining o‘quv fanlari tizimidagi har qanday darslarda o‘quvchilarni to‘g’ri nutqga,bilimlarni aniq ifodalashga o‘rgatiladi,bu esa tafakkurni o‘sishi uchun muhimdir.

Har bir o‘quv fanining mazmuni o‘quvchining lug’atini boyitadi va nutqning o‘sishiga qaratiladi.O‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatish,hayotga tayyorlash uchun nutqini o‘stirish,nutqiy muloqotga,o‘qish va yozishga ,kasb-hunarga o‘rgatish dolzarb muammolardan birdir.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatda nutq o‘stirish ishlari yozuv,ona tili,o‘qish,nutq o‘stirish darslarida ta’limiy vazifa sifatida bajarilsa,boshqa fanlarda nutq o‘stirish ishlari korreksion vazifa sifatida bajariladi. Har bir darsda ta’limiy va tarbiyaviy ishlardan tashqari albatta bolaning bilish faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish,korreksiyalash ishlari amalga oshiriladi.Bu ishlar barcha fanlarda dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtida,logopedik mashg’ulotlarda ,mehnat faoliyati asosida olib boriladi.Ta’lim jarayoni aqli zaif o‘quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish ,uni orqada qolishiga olib keluvchi ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi turli xil nuqsonlarni tuzatish, yengillatish, korreksiya qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan Turli sabablarga ko‘ra sinfdagi guruhli ishdan orqada qolgan, ulgurmovchi o‘quvchilarga logopedik yordam ko‘rsatilishi tufayli ular dastur talablariga mos ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Nutqni o‘z vaqtida to‘g’ri egallash bolaga atrofdagi insonlar bilan erkin muloqotda bo‘lish imkonini beradi,o‘z xulqini boshqarishga yordamlashadi,psixik faoliyatining rivojlanishiga ko‘maklashadi,maktabda ta’lim-tarbiya berish jarayonini ancha yengillashtiradi. Nutq mexanizmlari murakkab bo‘lganligi sababli aqli zaif o‘quvchilar o‘qish va yozishni ,kasb-hunarni me’yordagi tengdoshlariga nisbatan qiyinchiliklar bilan o‘zlashtiradilar.Hozirgi kunda aqli zaif o‘quvchilarni nutqini o‘stirishda ularning psixofizik rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus yaratilgan korreksion-pedagogik tizim asosida olib boriladigan ishlarda fanlararo bog‘lanish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ayupova, Mukarram Yu. "Speech Preparation of Preschool Children with Speech Deficiency for School Education." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 2345-2353.
2. Абидова Н.З. Организация работы учителя-логопеда в условиях инклюзивной практики // мактаб ва ҳаёт журнали, № 4 (168) / 2022.
3. Соботович, Е.Ф. Речевое недоразвитие у детей и пути его коррекции / Е.Ф. Соботович. - М. : Классикс Стиль, 2013. - 158 с.
4. Mamatkulova L.T.“Aqli zaif bo’lgan boshlang’ich sinf o’quvchilarining yozma nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish”.Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi .2022/5-son,242-244.
5. Mamatkulova, L. T. (2022). Defects in the written speech of elementary school students with intellectual disabilities and their elimination. *Confrencea*, 6(6), 16-17.